



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JIZZAX FILIALI



KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI

XALQARO ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI

TO'PLAMI
2-QISM



26-27-SENTABR
2025-YIL



Google
Scholar

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK
TEXNOLOGIYALARI**

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2025-yil 26-27-sentabr)
2-QISM

JIZZAX-2025

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami – Jizzax: O'zMU Jizzax filiali, 2025-yil 26-27-sentabr. 368-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma'ruza tezlari to'plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas'ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay'ati a'zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O'ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo'rayev M.M.

Mazkur to'plamga kiritilgan ma'ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlarning to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

11. Шевелева С.С. Открытия модел образования (синергический подход). – М.: ИПЧ «Издателство Магистр», 1997. -48 с

SO‘FI OLLOYOR ASARLARI VA PEDAGOGIKA INTEGRATSIYASI

G‘ulomova Nazira Rustamjon qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining tayanch doktoranti

gulomovanazira424@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada buyuk tasavvuf olami ijodkori So‘fi Olloyor asarlarining hozirgi kun talablari asosida talabalarga ma‘naviy-axloqiy ta‘lim berish jarayoniga mos bo‘lgan asarlaridan bir nechta bayonotlar aks etgan bo‘lib, ularni pedagogika sohasiga integratsiyalashtirish bo‘yicha taklif va xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Ustoz va shogird bayoni, iymonning bayoni, yaxshi hamroh bayoni, faqirlarni haqir ko‘rmoqlik bayoni.

Rivojlanib borayotgan jamiyatimizda yoshlarning tasavvufiy asarlar mohiyatini tushunib yetishi yoki bo‘lmasa tasavvufiy asarlar haqida tasavvurga ega bo‘lmasligi shaxs tarbiyasidagi ma‘naviy oqsashga olib keladi. Aynan shaxs tarbiyasida ta‘lim bilan bir qatorda ma‘naviy-axloqiy tarbiyaning teng borishi pedagogika sohasida muhim hisoblanadi. Chunki ma‘naviy axloqiy tarbiya tushunchasi ijtimoiy hayotda, jamiyatda shaxsni mustaqil o‘rin egallashi uchun eng muhim tushunchalardan biridir. Buni Abdulla Avloniyning “ tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir”- deya ta‘kidlagan fikrlari bilan to‘ldirish mumkin , albatta. Shu sababli ta‘lim tizimida tasavvufiy asarlar orqali talaba-yoshlarning ong osti bo‘shliqlarini to‘ldirish va yanada boyitish zarur. Har bir asar o‘z navbatida ma‘lum bir maqsad asosida yoziladi va har bir maqsadning tag zamiri esa ma‘naviy tushuncha berish uchun xizmat qiladi.

Asosiy qism

So‘fi Olloyor asarlari (“Sabotul ojizin” va boshqa) insonni ma‘naviy yetuklik sari ildam harakatda bo‘lishga undaydi. Undagi bayonotlar esa shaxsni fikr- mulohaza qilishga, sabr- toqat va tavozelikka o‘rgatadi. Ta‘kidlab o‘tish kerakki, tarbiyaviy yo‘nalishdagi tasavvufiy asarlar kamolot sari eltuvchi noyob manbaalar sirasiga kiradi. O‘z zamonida, tarixiylik prinsipi asoslariga ko‘ra tasavvufshunos adibning Sabotul ojizin asariga “Risolai Aziza” (Tojiddin Yolchig‘ul o‘g‘li), “Irshodul oizin” (Xoja Xalimbek ibn Niyoz Muhammadxoja), “Hidoyatul tolibin” (Mullo Niyoz Muhammad ibn Muhammad Amin Buxoriy), “Ravoyihur Rayhon” (Rashid Zohid) kabi sharxlar yozilgan bo‘lib, sharxlovchilar asar mazmun-mohiyatini o‘zi yashagan davrdagi insonlar uchun oson tushunishiga ko‘maklashgan. Chunki asar sharxlovchisi o‘zi yashagan davr bilan hamnafaslikda asarni sharxlaydi va zamondoshlariga oson tushunishi uchun zamin yaratadi. “Sabotul ojizin” yozilishi sababi haqida muallif shunday deydi:

Yozildi forsiy til birla maktub,
Aqidotu furu qurbi mahbub.

Anikim ko‘rdilar turkiy yoronlar,
Dedilar: “Gar duo qilsa eranlar.
Bitilsa turkiy til birla aqida,
Ko‘ngullar bo‘lsa andin oromida”.

“Sabotul ojizin” asari yozilishidan avval “Maslak ul-muttaqin” asari tasavvufchi shoir tomonidan yozilgan bo‘lib, bu asar forsiy tilda bayon etilgan. Asar yuzdan ortiq fatvo kitoblaridan olinganligi va adib tomonidan, asosan, aqidaviy va fiqhiy masalalarni o‘zida jamlanganligi bois, fors tilini bilmaydigan kishilar shoirdan turk tilida ham bayon qilib berishlarini iltimos qilishadi. Shu sababli So‘fi Olloyor asarni turk tilida bayon qilib, uni “Sabotul ojizin” ya’ni (Ojizlar saboti) deb nomlaydi. Bu asarni yozilish maqsadi “Ravshaniya” tariqatining paydo bo‘lishidadir. So‘fi Olloyor yashagan davrda tariqat pirlarining xonlar davrasiga intilishi, katta vaqflarni

qo‘lga kiritishga va mol-mulkarni to‘plashga urinishi odat tusini oldi. Shu sababli shayxlar o‘quv dargohlari talabalari uchun yuzaki ta’lim berib asosiy vaqtini siyosat bilan band qildilar. Oddiy avom xalq uchun o‘sha davrda islomiy ta’limot zarur bo‘lgan va bilib bilmay istagan tariqatini targ‘ib qilgan soxta shayxlar izidan ergashgan. Ravshaniya tariqati islom arkomlariga zid bo‘lganligi sababli So‘fi Olloyor ilk aqoidiy asarini yozishga qaror qildi. Asarda asosan diniy-axloqiy masalalar keltirilgan bo‘lib, har bir shaxsni sabrli iymonli va sadoqatli bo‘lishga undaydi.

Ustoz va shogird bayoni

Muallif tasavvufiy va axloqiy ta’limotlarni sodda xalqona tilda bayon qilar ekan, inson ma’naviy kamolotida ustozning o‘rni va shogirdning vazifalarini yuksak qadrlaydi. Shu sababli “Sabotul ojizin” asarida ustoz va shogirdlik munosabatlari alohida o‘rin egallaydi. Tasavvufchi shoir ustoz va shogird munosabatlarida har ikkisinin o‘rni va vazifalarini alohida ta’riflaydi.

Ustozning o‘rni

Asarda ustoz insonni ilm va hikmat sari yetaklovchi, nafsni tarbiyalovchi, qalbni tozalovchi shaxs sifatida talqin etiladi. Ustoz nafaqat bilim beruvchi, balki o‘z hayoti bilan ibrat ko‘rsatadigan murabbiy sifatida ta’riflanadi. Olloyorga ko‘ra, haqiqiy ustoz shogirdni faqat nazariya bilan emas, balki amaliy xulqi bilan ham kamolot sari yo‘naltiradi.

Shogirdning vazifasi

Shogird uchun eng muhim fazilat – **itoat, kamtarlik va sabr**dir. U ilm olish jarayonida ustozining ko‘rsatmalariga amal qilib, o‘zini ma’naviy va axloqiy jihatdan shakllantirishi lozim. So‘fi Olloyor nazarida, ilmni egallash faqat yod olish emas, balki ustoz ko‘rsatgan yo‘lni qalbga singdirish va uni amalda qo‘llashdir.

Ustoz-shogird aloqasining mazmuni

Bu munosabat oddiy bilim berish jarayoni emas, balki insonni ma’naviy yetuklikka olib boruvchi **ruhiy-tarbiyaviy maktab** sifatida tushuntiriladi. Ustoz – yo‘lchi, shogird esa izlovchi. Shogird ustozdan ilm olarkan, uni o‘z hayotiy tajribasida sinab ko‘rishi, o‘zida axloqiy sifatlarni shakllantirishi kerak. “Sabotul ojizin”dagi ustoz va shogird haqidagi qarashlar bugungi pedagogika uchun ham muhimdir. Ustoz – jamiyatning ma’naviy yo‘lboshchisi, shogird esa kelajakning poydevori sifatida talqin etiladi. Ularning o‘zaro hurmat va sadoqatga asoslangan munosabati insonni barkamollikka eltuvchi eng samarali yo‘l sifatida ta’riflanadi.

Iymon bayoni

So'fi Olloyorning mashhur "**Sabotul ojizin**" asari diniy-ma'rifiy, axloqiy-tarbiyaviy mazmunga ega bo'lib, unda iymonning mohiyati keng yoritilgan. Muallif iymonni inson hayotining poydevori, ma'naviy kamolotning asosiy omili sifatida ko'rsatadi. **Iymon – bu faqat til bilan aytiladigan so'z emas**, balki qalb bilan tasdiq, ongli ravishda qabul qilish va amalda ko'rsatishdir. Muallif iymonni turli darajalarga ajratib ko'rsatadi. **Birinchi daraja** – oddiy e'tiqod, **ikkinchi daraja** – yaqinlik iymoni, **eng oliy daraja**– **haqiqat iymoni**

Bu darajada inson Allohni qalban tanib, uni butun mavjudoti bilan sevadi.

So'fi Olloyor iymonni faqat diniy tushuncha sifatida emas, balki **axloqiy tarbiyaning manbai** sifatida ham talqin qiladi. Uning fikricha, sabr, halollik, tavozelik, adolat, mehr-oqibat kabi insoniy fazilatlar iymonning mevasidir. Shuningdek, iymonli kishi nafsini tiyib, boshqalarga ibrat bo'lishi lozimligi ta'kidlanadi.

Yaxshi hamroh bayoni

Asar muallifi o'z asarida insonning ma'naviy yetuklikka erishishida **hamroh tanlash** masalasiga katta e'tibor qaratadi. Chunki odamning axloqi, odati va yo'li ko'p jihatdan uning yonidagi insonlar bilan belgilanadi. Asarda yaxshi hamroh yuksaltiruvchi kuch sifatida ko'rsatilsa, yomon hamroh insonni nafs yo'liga, gunoh va ma'nosiz hayotga boshlovchi xavfli omil sifatida talqin qilinadi. Yomon do'st bilan yurish – qalbning qorayishiga, hayotning isrof bo'lishiga sabab bo'lishi ta'kidlanadi. "Sabotul ojizin"dagi yaxshi hamroh talqini bugungi tarbiya jarayoni uchun ham dolzarbdir. Chunki yoshlar kim bilan yurishi, kimning fikriga quloq solishi orqali shakllanadi. Shu bois ham So'fi Olloyor yaxshi hamrohnii hayotdagi eng katta ne'matlardan biri sifatida ko'rsatadi.

Faqirlarni haqir ko'rmoqlik bayoni

Insoniy munosabatlarning eng nozik masalalaridan biri – faqirlarga bo'lgan muomala haqida ham so'z yuritadi. Unga ko'ra, kambag'al va nochorlarni kamsitish, ularni tahqirlash – imon va odobga zid holatdir. Faqirlarni kamsitgan kishi aslida o'zining insoniy qadrini yo'qotadi. Olloyor ta'kidlaganidek, mol-dunyoga berilib, faqirlarni xor tutish – insonni ma'naviy tubanlikka olib keladi. Ustozning fikricha, bu holat inson qalbidagi rahm-shafqat tuyg'usining susayishidan darakdir.

Kambag'allarga yordam qo'lini cho'zish, ularga mehribonlik qilish – nafaqat diniy, balki axloqiy burchdir. Yaxshi musulmon o'zining boyligi, mavqei yoki ilmiy darajasidan qat'i nazar, faqirlarni birodarlik ruhida qabul qilishi kerak. Zero odamzod xato qilg'uvchidir.[3] Olloyor ta'limotida faqirlarni qadrlash orqali inson o'z qalbini takomillashtiradi va Allohga yaqinlashadi.

Xulosa va tavsiyalar

"Sabotul ojizin"dagi bu kabi qarashlar bugungi jamiyat uchun ham dolzarbdir. O'quvchi-yoshlarni tarbiyalash jarayonida ularga mehr-shafqat, tenglik, insonparvarlik g'oyalari singdirilsa, ular jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlovchi kuch bo'lib voyaga yetadi.

- ta'lim-tarbiyada yoshlarning e'tiqodini mustahkamlash, iymonni faqat nazariy bilim sifatida emas, balki amal va axloq bilan uyg'un holda shakllantirish zarur.

- pedagogik jarayonda ustozning ibрати va shogirdning itoati asosiy tamoyil sifatida qaralishi kerak. Ustozlar faqat bilim emas, balki odob, vatanparvarlik va insoniylikni ham o'rgatishi maqsadga muvofiq.

- yoshlarni sog'lom muhitda, yaxshi do'stlar davrasida bo'lishga undash muhim. Ta'lim muassasalarida hamkorlik, guruhii ishlash va ijobii liderlikni rivojlantirish uchun sharoit yaratish lozim.

- O'quvchilarni ijtimoiy loyihalar, xayriya tadbirlarida ishtirok ettirish orqali ularda rahm-shafqat va jamiyat oldidagi mas'uliyatni shakllantirish mumkin.

So'fi Olloyorning "Sabotul ojizin" asari iymon, ustoz-shogird munosabati, yaxshi hamroh tanlash va faqirlarni e'zozlash haqidagi qarashlari bilan bugungi tarbiya jarayonida ham katta ahamiyat kasb etadi. **Iymon** – yoshlarning ma'naviy tayanchi. **Ustoz va shogird** – ilm va odobni avlodidan-avlodga o'tkazuvchi eng mustahkam ko'prik. **Yaxshi hamroh** – insonni ezgulikka yetaklovchi eng katta ne'mat. **Faqirlarni qadrlash** – jamiyatda insonparvarlik va tenglikni qaror toptiruvchi fazilat. Ushbu g'oyalar nafaqat tasavvufii meros sifatida, balki zamonaviy pedagogik tizim uchun ham **tarbiyaviy dastur** vazifasini bajarishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. So'fi Olloyor "Sabotul ojizin", Rashid Zohid sharhi. Toshkent "MATBAACHI" nashriyoti-2024. 38-39-betlar.
2. Shuhrat Sirojiddinov. "ILM VA TAHAYYUL SARHADLARI". Yangi asr avlodi. Toshkent -2011. 111-112-betlar
3. So'fi Olloyor "Maslak ul-muttaqin", Qo'zixo'ja Hafizxo'ja o'g'li tarjimai. Toshkent "MATBAACHI" nashriyoti-2023.40-b
4. Kutubxona.uz
5. Ziyonet.uz

TALABALARDA MOTIVATSIYANI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Djumanov Sherali Zakirovich,
Nomozova Latofat Sodiq qizi**

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
sherali.zhumanov.83@bk.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalar o'quv faoliyati samaradorligiga motivatsiyani ta'siri, talabalarda motivlarni shakllanishida psixologik xizmatning o'rni haqida nazariy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: ruhiy qo'llab-quvvatlash, muloqot, motivatsiya, ijtimoiy muhit, pedagogik mahorat, kommunikativ qobiliyat, psixologik xizmat.

Zamonaviy ta'lim tizimi nafaqat bilim berish, balki shaxsning har tomonlama kamol topishiga, mustaqil fikrlash, o'z hayotiga maqsad qo'yish va unga erishish qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Ayniqsa, oliy ta'lim bosqichida tahsil